O'RTA OSIYODA SHAYBONIYXONNING TUTGAN O'RNI

O'ralov Suhrob Maxammadi o'g'li
Chirchiq davlat pedagogika Universiteti
Gumanitar fanlar fakulteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada, Shayboniyxon davrining tarix sahifalaridan tutgan o'rni, uning xonlik davrlari va O'rta Osiyoda tutgan o'rni haqida so'z yurutilgan.
Kalit so'zlar: O'rta Osiyo, Shaybonixon, sulola, hukmdorlik, Abdulxayrxon, Shoh Budoqxon, Dashti Qipchoq, "Tavorixi guzidayi nusratnoma" asari, diniy bilim, siyosat.
Annotation: This article talks about the place of Shaibani Khan's era in history, his khanate period and his place in Central Asia.
Key words: Central Asia, Shaibani Khan, dynasty, rulership, Abdulkhair Khan, Shah Budok Khan, Dashti Kipchak, the work "Tawarihi Guzidayi Nusratnoma", religious knowledge, politics.
Аннотация: В данной статье говорится о месте эпохи Шайбани-хана в истории, периоде его ханства и его месте в Средней Азии.
Ключевые слова: Средняя Азия, Шайбани-хан, династия, правление, Абдулхаир-хан, Шах Будок-хан, Дашти Кипчак, произведение «Таварихи Гузидаи Нусратнама», религиозное знание, политика.

Shayboniylar sulolasining asoschisi Muhammad Shayboniyxon hukmdor Abdulxayrxonning nabirasi Shoh Budoqxonning o'g'li bo'lib, u 1451 yil tug'ilgandir. Bolaligidan uni Muhammad Shoh Baxt ("Shoh baxti") deb atar edilar. Muhammad Shoh Baxtning otasi Shoh Budoq Sulton erta vafot etgan. Ko'chmanchi oliy tabaqadagilarning o'zaro nizolari qurboni bo'lgan Abdulxayrxon vafotidan so'ng (1469) uning hokimiyatiga birlashgan qabilalar tarqab ketdi. Dashti Qipchoqning sharqiy qismida g'alayonli yillar boshlandi. Shayboniyxon hokimiyat uchun kurash olib bordi va bir madaniy markazdan ikkinchi bir madaniy markazga o'tish chog'ida ba'zi qal'alarga yurish qildi. Keyinchalik u Samarqandga, Temuriylar saroyiga taklif etildi.

Temuriylar saroyida Shayboniyxon "buyuk xon"ning nabirasi sifatida yaxshi kutib olindi. Temuriy hukmdorlar Shayboniyga umid bilan Dashti Qipchoqda o'z siyosatlarini amalga oshiruvchi shaxs sifatida qarar edilar. Markaziy Osiyoning madaniy markazlarida ma'rifatli kishilar bilan yaqindan tanishuv Muhammad Shayboniyga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Ayniqsa, Buxoroda yashagan yillari uning hayotida o'chmas iz qoldirdi, bu yerda Qur'onni juda yaxshi o'quvchi qorilardan biri Mavlono Muhammad Xitoyi unga dars bergan.

Shayboniyxon o'z davrining ma'rifatli kishisi, jasur jangchi bo'lishi bilan birga mohir sarkarda ham edi. O'zining she'riy solnomasi – "Shayboniynoma"ni Shayboniyxonga bag'ishlagan Muhammad Solih, uni harbiy mahoratga ega kishi sifatida ta'riflaydi. [1, - p 1]

Shayboniy yollanma qo'shin boshlig'idan xon darajasiga ko'tarilgan tarixiy shaxsdir. U nafaqat sarkarda balki, Shohbaxt, Shoyboq, Sheboni, Shohibek, Shayboniy taxalluslari bilan g'azal, ruboiylar bitgan shoir hamdir. Shayboniyxonning adabiy me`rosidan bizgacha bir nechta o'zbekcha g'azal, ruboiy va «Bahr-ul xudo» (1508-yil 14-may Bastom, Domg'omda yozib tugallangan) nomli dostoni va 1507-1508-yillarda yozilgan o'g'li valiaxd Temur sultonga atalgan pand-nasihatlardan iborat kitobi mavjud (uning yagona nusxasi hozir Turkiyada saqlanadi). U yoshligida otasi Budoq sulton va onasi Qo'zibegimdan yetim qolgach, otasining sodiq xizmatkori Qorachabek oilasida tarbiyalanadi. Keyinchalik Shayboniyga Turkiston va O'tror hukmdori Muhammad Mazid tarxon homiylik qiladi. Shayboniy yoshligida Buxoro madrasasida ta`lim oladi. [2, - p 12]

Shayboniy Dashti Qipchoqqa qaytib borib lashkar to‘plashga muvaffaq bo‘lgan. U buyuk davlatni tiklash yo‘lida xatti-harakatni dastlab o‘z qo‘shini bilan temuriylarga yollanma qo‘shin lashkarboshisi sifatida xizmat qilishdan boshlagan. Dastlab Shayboniy parchalangan Amir Temur davlatining shimoliy chegarasida noyiblik qilayotgan homiysi Mazid tarxondan uni o‘z xizmatiga olishni so‘raydi. Avvaliga bu taklifga rozi bo‘lgan Mazid tarxon tezda Shayboniyni o‘z hokimiyatiga xavf solishi mumkinligini anglab yetadi. Natijada, u Shayboniyni Buxoro hokimi Darvish Muhammad tarxon ixtiyoriga jo‘natib yuborish orqali undan qutuladi. Chunki, Darvish Muhammad bunday yordamga muhtoj edi. Uning xizmatidan boshqa hukmdorlar ham foydalanganlar. Shayboniy o‘z qo‘shini bilan Mo‘g‘iliston, Movarounnahr hamda Xorazm hukmdorlariga xizmat qilib, ularning qo‘shnilariga va ichki raqiblariga qarshi kurashdi. Bu kurashlarda Shayboniy o‘zining mohir lashkarboshilik qobiliyatini namoyon qiladi. Uning bunday turmush tarzini yozma manbalarning mualliflari «qozoqlik» ya`ni «o‘z xalqi va qavmidan ajralib ketgan odamlar, taxt uchun kurashda yengilsa-da, ammo o‘z huquqidan voz kechmagan va o‘z tarafdorlariga boshchilik qilib, vuqoliflari bilan qulay fursat poylab kurashadigan sulola vakili» deb atashgan edi. Turli hukmdorlarga xizmat qilish Shayboniyga Temuriylar davlatidagi vaziyatni yaxshi bilib olishiga imkon berdi. Movarounnahr hukmdorlari va zodagonlari uning xizmatidan eng ko‘p manfaat ko‘rishi natijasida Shayboniy Movarounnahr zodagonlari orasida mashhur bo‘lib ketgan edi. [3, p – 13]

Shayboniyxon Dashti Qipchoqda o‘z davlatini tiklashga muvaffaq bo‘ldi. Shayboniyxon 1510 yil Marv yaqinidagi Mahmud qishlog‘ida Eron shohi Ismoil Safaviy bilan bo‘lgan jangda halok bo‘ldi. Jang tugaganidan so‘ng uning jasadi askarlar jasadlari orasidan topilgan. Shayboniyxonning vahshiylarcha tanib bo‘lmas holga keltirilgan boshsiz tanasi Samarqanddagi Baland Sufa degan yerga dafn etildi. Hozirda boshqa shayboniylar ham dafn etilgan Sufa Registon maydonida joylashgan bo‘lib, Tillakori va Sherdor madrasalari o‘rtasidagi burchakdadir.

Tarqoq qabilalarni to‘plash va shaharlardagi e’tiborli shaxslardan o‘ziga ittifoqdoshlar yig‘ishdan o‘z faoliyatini boshlagan Muhammad Shayboniyxon qo‘lga kiritilgan qal’alarni mustahkamlash va ularda o‘z hokimiyatini yanada kuchaytirishga katta e’tibor berdi. U harbiy yurishlar va davlat ishlari orasidagi qisqa tanaffuslarda turli fanlar va islomni o‘rganish, tarixiy va she’riy asarlar bitish bilan shug‘ullandi. Shayboniylar davlatiga asos solgan Muhammad Shayboniy o‘z saroyiga ko‘plab tarixchilar, shoirlar, olimlarni jalb etdi. Uning saroyida Kamoliddin Binoiy, Muhammad Solih, Mullo Shodi, Fazlulloh ibn Ruzbehxon kabilar panoh topib, o‘z asarlarini bitdilar. Muhammad Shayboniyxonning Hirotni qo‘lga kiritilgandan so‘ng Kamoliddin Behzod tomonidan chizilgan portreti bizning kunlargacha saqlanib qolgan. Rasmning diqqatga sazovor tomoni xon oldidagi yozuv qurollari bo‘lib, ular hukmdorning ilm-ma’rifatga qiziqqani va yozishni yaxshi ko‘rganligini ko‘rsatadi. [4, p – 2]

Shayboniyxon tarixni sevgan va tarixiy asarlar yaratilishida ishtirok etgan. So‘nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, Shayboniyxon o‘zbek (“turk”) tilida bitilgan o‘ziga xos manba – “Tavorixi guzidayi nusratnoma” asarining yozilishida bevosita ishtirok etgan. Bu manbada keltirilgan aniq dalillar bilan tasdiqlanadi.

Hozirda “Tavorixi guzidayi nusratnoma” hamda Shayboniyxon faoliyatiga oid bo‘lgan boshqa tarixiy asarlarning bir manba asosida vujudga kelganligi haqidagi faraz isbotlangan deb aytish mumkin (V. P. Yudin, R. G. Mukminova). Bu hol muallifi noma’lum “Tavorixi guzidayi nusratnoma”, Muhammad Solihning “Shayboniynoma”, Kamoliddin Binoiyning “Shayboniynoma”, Mulla Shodining “Fathnoma” asarlarida bayon etilgan voqealarning o‘xshashligi va ularda keltirilgan bir xil she’rlar, shu jumladan Muhammad Shayboniyga nisbat beriladigan she’rlarning mavjudligi bilan ham tasdiqlanadi. “Tavorixi guzidayi nusratnoma” muallifi noma’lum asardir. Asarning saqlanib qolgan hech bir qo‘lyozmasida (Sankt-Peterburg

va Londondagi asosiy qo‘lyozmalardan tashqari, yana qisqartirilgan qo‘lyozma nusxalari ham mavjud) muallifning nomi ko‘rsatilmagan. Sankt-Peterburg qo‘lyozmasi matnida muallifning nomi ko‘rsatilishi lozim bo‘lgan joy bo‘sh qoldirilgan. Shu narsa aniqqi, “Tavorixi guzidayi nusratnoma”ni yozishda Shayboniyxonning o‘zi ishtirok etgan.

Davr talabiga binoan Shayboniyxon turkiy tilidan tashqari fors tilini yaxshi egallagan, she’riyatga qiziqib, o‘zi she’rlar yozgan. Xonning baytlari uning atrofidagi mualliflarning asarlarida keltirgan. Hasanxoja Nisoriy o‘zining “Muzakkir al-ahbob” asarida Shayboniyxonning bayt va g‘azallaridan namunalar keltiradi. Xon haqida yozar ekan u: “Yaxshi she’rlari bor edi”, deb ta’kidlab shunday deb qayd qiladi: “… Hazrati shayx Najmiddin Kubroning… vafoti tarixini yaxshi aytgan. [5, p – 3]

Shayboniyxon 1497-yilda Movarounnahrga o‘zining dastlabki yurishini uyushtirgan. U katta kuch bilan Samarqandga yurish qildi, lekin shaharni ololmasdan, Qarshi va Shahrisabzga hujum qilib katta o‘lja bilan qaytib ketgan. Shayboniyxon 1499-yildan Movarounnahrni zabt qilishni boshladi. 1499-yilda u jangsiz Buxoroni va 1500-yilda temuriylar davlatining poytaxti bo‘lmish Samarqandni egallaydi. Shu tariqa Temuriylar davlati o‘rnida Shayboniylar hukmronligi o‘rnatildi. 1533-yilda Abu Saidxon vafotidan so‘ng, turkiy an`anaga binoan sultonlar ichida eng yoshi ulug‘i Ubaydullaxon Buxoroda shayboniylar sulolasining xoni qilib ko‘tarilgan. Poytaxt ham Samarqanddan Buxoroga ko‘chirilib, davlatning nomi rasmiy ravishda Buxoro xonligi deb atalgan. Nafaqat Ubaydullaxon hukmronligi davrida balki butun Shayboniylar davrida Buxoroning siyosiy, iqtisodiy va madaniy markaz sifatidagi mavqei kuchaydi. Shu jihatdan olib qaraganda mustaqillik sharofati bilan shayboniylar davrida Buxoro mavzusini tadqiq etish dolzarb mavzulardan biri hisoblanadi. Shayboniylar davrida Buxoroning siyosiy, iqtisodiy va madaniy markaz sifatidagi ahamiyati tarixiy manbalar, ilmiy adabiyotlar orqali yoritib berildi va tizimlashtirildi. [6, - p 4]

Xulosa. Xulosa o’rnida shuni ta’kidlash mumkinki, Shayboniyxon O’rta Osiyoda keng qamrovli va muhim ahamiyatga ega bo’lgan sarkarda, jang san’ati ustasi, diniy tomondan ham, dunyoviy tomondan ham juda ko’p bilim sohibi bo’lgan hukmdorlardan biri hisoblanadi, U o’zining Shayboniylar sulolasiga asos solayotgan paytida ham hech bir havfdan qo’rqmagan, u butun millat va elatlarga ma’lum bo’lgan temuriylar sulolasi a’zolarining ham e’tiboriga tushgan shaxs edi. U g’yat jasur, san’atsevar, e’tiborli va hurmatga ega hukmdorlardan biri desak adashmagan bo’lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Muhammad Shayboniyxon - https://saviya.uz/hayot/tarjimai-hol/muhammad-shayboniyxon-1451-1510/
2. Shayboniylar davrida Buxoro xonligi - https://fayllar.org/pars_docs/refs/563/562472/562472.pdf
3. Muhammad Solih Shayboniynoma. T” G‘. G‘ulom” 1989.
4. Mustaqil O‘zbekiston tarixi. T.: “Sharq” nashriyoti, 2000 yil.
5. O‘zbekistonda harbiy ish tarixidan. T” Sharq” 2012.
6. www.ziyonet.uz
7. www.ref.uz